

**DORIVOR ISIRIQ „HARMALA PEGANUM” O’SIMLIGI O’ZIGA XOS  
BIOLOGIK HUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI**

Muxtarova Sitora Alisherovna

SVMITF tayanch doktaranti

Hozirgi kunda inson va boshqa tirik organizmlarda turli tuman kasalliklarning ko’pligi tufayli dunyo bo’yicha dorivor o’simliklarga bo’lgan ehtiyoj va talab nihoyatda yuqori. Dorivor o’simliklar asosan xalq tabobati tibbiyat hamda veterinariya amaliyotida profilaktika va davolash maqsadida foydalaniladi, bundan tashqari dorivor o’simliklardan ko’pgina qo’shimchalar va endofit bakteriyalarni ajratib olish maqsadida ham foydalaniladi. Xalqaro tabiatni qo’riqlash ittifoqi (IUCN) ma’lumotiga ko’ra ,tibbiyatda 21 mingga yaqin dorivor o’simlik ishlataladi. Dorivor o’simliklarning yillik aylanmasi 3 mln dollardan oshadi bu asosan Xitoy, Hindiston, Germaniya, davlatlari dorivor o’simliklar eksportiga to’g’ri keladi.

O’zbekiston tabiiy geografik jihatdan dorivor o’simliklarga boy hudud hisoblanib, respublikamizda tabbiy holda o’sadigan 4500 turga yaqin yuksak o’simliklarning 1200 ga yaqini dorivorlik hususiyatiga ega. Respublika Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 4-maydagি Buxoro viloyati cho’l hududlarida “Yashil qalqon” himoya o’rmonzorlari, dorivor shumg’iya va isiriq o’simliklari plantatsiyalarini barpo etish, xom ashyoni dastlabki qayta ishlashni amalgalash oshirish chora – tadbirlari to’g’risidagi farmoyishiga muvofiq, o’rmon xo’jaliklarimiz tomonidan hozirga qadar 2973 hektar maydonga isiriq ekilgan. Pandemiya davrida plantatsiyalardan 20 tonna isiriq yig’ishtirib olindi. Ushbu dorivor o’simlik koronavirus infeksiyasiga qarshi kurashda ham ko’plab foydalanildi.

Isiriq (Harmala Peganum L) - Zygophyllaceae (Tuyatovondoshlar) oilasining Peganaceae (Isiriqdoshlar) oilachasiga mansub bo’yi 60-70 sm gacha bo’lgan o’tsimon o’simlik. O’simlikning 6 ta turi bor O’zbekistonda faqat bitta turi H.peganum o’sadi. Poyasi bir nechta sershox ko’p tukli, poyasi atrofga yoyilib o’sadi. Barglari kulrang yoki yashil oddiy 4-5 bo’lakka bo’lingan barglari patsimon ajralgan. Poyasining pastki qismidagi barglari qisqa bandli bo’lib, barglari poya va shoxlarida ketma-ket joylashgan, gullari shoxlarining uchki qismida yakka-yakka joylashgan rangi oq, sarg’ish . Mevasi ko’sakcha uch chanoqli sharsimon ko’p urug’li. Urug’i to’q jigarrang tusda. O’simlik erta bahorda o’sishni boshlaydi may-iyun oylarida gullaydi mevasi avgustda pishib yetiladi. Isiriq asosan Markaziy Osiyo, Qozog’iston, Kavkaz cho’l va yarim cho’llarida adir o’tloq hamda tog’larning quyi



qismidagi yonbag'irlarda qumloq toshloq tuproqli joylarda dalalarda ekinlar orasida begona o't sifatida o'sadi.

Isiriq o'simligining dorivorlik hususiyati bilan bir qatorda zaharli hususiyati ham mavjud. Isiriqning xalq tabobatida asosan yer ustki qismidan foydalaniladi. Shonalash davrida olinadigan o'ti va urug'lari davolash uchun ancha samarali hisoblanadi. Urug'lari harmalin, gul va poyasida peganin mavjud. Isiriq tarkibida asosan garmin, peganin, vazitsin, garman, dezoksipeganin va boshqa alkaloidlar turli yog' va oshlovchi moddalar mavjud, bundan tashqari o'simlik urug'idan jun, gazlama va shoyilar uchun boyoq va boshqa moddalar ham olinadi.O'simlik ildizida 3.3%,poyasida 3.57%,bargida 4.96% urug'ida 6.6% gacha alkaloidlar bor. O'simlik bargi va urug'ida alkaloidlar nisbatan ko'p. Isiriqning barcha qismlari dorivor shuning uchun davolash maqsadida o'simlikning deyarli barcha qismlidan foydalaniladi. Garmin alkaloidining xlorgidrat tuzi ensefalit kasalligining asoratini, tutqanoq, qaltiroq va Parkinson kasalliklarini davolashda foydalaniladi. Dezoksipeganin gidroxloridning ampuladagi eritmasi mushak va asab kasalliklarini davolashda ishlataladi. Gripp kasalliklari kuchayganda isiriqni tutatib xonalarни dizenfeksiyalashda foydalaniladi, yer usti qismidan tayyorlangan qaynatma tinchlaniruvchi, terlatuvchi, siydiq haydovchi va ko'pgina teri kasalliklarida foydalaniladi.Qaynatma damlamasi tutqanoq nevrasteniya va shamollah bilan bog'liq ko'pgina kasalliklarda samarali.Abu Ali ibn Sino ham isiriqning shifobaxsh xususiyatlarini aniqlab bemorlarni davolashda foydalangan.Abu rayxon beruniy ham o'zining „Kitob as -saydana fit tibb asarida ushbu o'simlikning shifobaxsh xususiyatlarini aytib o'tganlar.

Xulosa qilib aytganda ushbu o'simlik tabiat gavhari mo'jizalaridan hisoblanib, o'simlikning barcha qismi dorivorlik hususiyatiga ega bo'lib, xalq tabobati tibbiyat hamda farmaseftikada keng miqyosda foydalaniladi. Yurtimizda asosan Surxandaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro va boshqa viloyat va tumanlarda keng tarqangan.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO,YXATI:**

1.А.Хамидов, М.Набиев, Т.Одилов —Ўзбекистон ўсимликларини аниқлагачи|| Тошкент ўқитувчи 1987 й. С 147

2.И.Х.Хамдамов, Э.И.Хамдамова, Г.А.Сувонова, М.Бекматова —Ботаника ва ўсимликлар физиологияси|| Тошкент 2017 й.

3.Э.Т.Бердиев, М.Х.Хакимова, Г.В.Махмудова —Ўрмон доривор ўсимликлари,—Сано стандарт|| Тошкент 2016 й.



- 4.Г.С.Турсунбаева, Г.М.Дўстжанова, А.Т.Абдуллаева, Ж.С.Садинов  
—Ботаника ўсимликлар морфологияси ва анатомияси‖, Тафаккур бўstonи тошкент 2018 й.
- 5.R.Artikova S.Murodova —Qishloq xo\_jalik biotexnologiyasi“  
O’Axmedov,A.Ergashev, A.Abzalov,M.Yulchiyeva,D.Mustafaqulov „Dorivor o’simliklar yetishtirish texnologiyasi” Toshkent -2020
- 6.O’pratov, L. Shamsuvaliyeva, E. Sulaymonov, X.Axunov, K.Ibodov,  
V.Mahmudov „Botanika” Morfologiya, Anatomiya,Sistematika,Geobotanika,  
Ta’lim nashriyoti Toshkent -2010
- 7.I.Tog’ayev „Yuksak o’simliklar sistematikasida amaliy mashg’ulotlar”  
Namangan nashriyoti -2015
8. „Antiviral Properties of Peganum Harmala (Espand) as a Medicinal Plant: A Literature Review” Seemin Dashti 2020 yanvar
- 9.,, Microdosing Peganum harmala” Michael Doty  
January 2018
- 10.Downregulationof Bax/Bcl-2ExpressionDuringApoptosisinthe Hippocampusof DiabeticMaleWistarRats: AmeliorativeEffectsof PeganumharmalaSeedExtract SaeedehFahimi 1,ShahrbanooOryan 2,RameshAhmadi 3,\* andAkramEidi 2023 y
11. Assessment of Allelochemicals Potential of Peganum harmala L. for Biological Control of Cynodon dactylon L  
Amal F Ehtaiwesh, University of Zawia, Latifa Yarboa ; October 2021
12. Distribution and ecological features of Peganum harmala L. in the environs of Lake Baskunchak (Astrakhan oblast)” Konstantin Grebennikov  
January 2017;
13. Haloaccumulation and Bioecological Value of Plants - Peganum Harmala under the Conditions of Karakalpakstan” Davletmuratova Venera Begdullaevna 2018y.

